TIBBIYOT TA’LIMI TALABALARINING INGLIZ TILI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Xaydarova Nigora Obidovna
Farg‘onda davlat univeristeti tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0009-5789-3296

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot ta’limi talabalarining kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini rivojlantirishga mo‘ljallanagan mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimi tahlil etiladi. Muloqot, leksik-terminologik, refleksiv, madaniyatlararo va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari asosiy mezonlar sifatida ajratilgan. Har bir mezon tegishli ko‘rsatkichlar majmuasi orqali ochib berilgan. Taklif etilayotgan tizim tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish sifatini baholash va oshirishga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: *tibbiyot ta’limi, ingliz tili kompetensiyasi, mezon va ko‘rsatkichlar, refleksiv ko‘nikma, klinik muloqot, kasbiy ingliz tili.*

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot ta‘limida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ingliz tili kompetensiyasini shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi. Xalqaro hamjamiyat bilan integratsiya, ilmiy manbalar va klinik protokollarga murojaat etish zaruriyati — bularning barchasi tibbiyot talabalaridan yuqori darajadagi ingliz tili ko‘nikmalarini talab qiladi [1]. Biroq, kompetensiyani faqat til bilimi bilan tenglashtirish yetarli emas: klinik muloqot, refleksiya, madaniyatlararo tushunuv va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish ham uning tarkibiy qismlari hisoblanadi [2].

Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda kompetensiyani baholash mezonlari masalasi hali yetarlicha ishlanmagan. Ko‘pincha o‘qitishning asosiy natijalari sifatida faqat xotira va diqqat kabi umumiy shaxsiy fazilatlar ko‘rsatiladi, kasbiy refleksiya va metakognitiv ko‘nikmalar esa e‘tibordan chetda qoladi [3]. Ushbu maqola ushbu kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi — tibbiyot talabalari uchun ingliz tili kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichlar tizimini ilmiy asoslash hamda tahlil etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetensiyali yondashuv tibbiyot ta‘limida keng e‘tirof etilgan [1, 2]. Bir qator xorijiy tadqiqotchilar tibbiy ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani markaziy o‘ringa qo‘yadi: bu nafaqat grammatik to‘g‘rilikni, balki vaziyatga mos nutq strategiyalarini tanlash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [2]. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika refleksiv kompetensiyani — ya’ni, talabaning o‘z faoliyatini ongli tahlil qilish va o‘zgartirishga tayyorligi ko‘nikmalarini — kasbiy o‘sishning zarur sharti deb belgilaydi [3].

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari uchun ingliz tilidagi darsliklarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularda kasbiy muloqotning axloqiy jihatlari va shifokor shaxsiga qo‘yiladigan talablar yetarlicha aks ettirilmagan [4]. Bundan tashqari, darsliklarda bemorga empatik munosabatni shakllantiradigan badiiy matnlar deyarli yo‘q, bu esa talabalarda klinik muloqot madaniyatini rivojlantirishga salbiy taʾsir ko‘rsatadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llandi: mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, mezonlarni ajratish va asoslash bo‘yicha pedagogika nazariyasining umumiy talablarini o‘rganish, shuningdek, tibbiyot ta‘limida kompetensiyali yondashuvni tatbiq etishga doir tajribaviy maʾlumotlarni umumlashtirish [5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mezonlarni ajratish va asoslash uchun quyidagi umumiy pedagogik talablar hisobga olindi: mezonlar shaxs shakllanishining asosiy qonuniyatlarini aks ettirishi, o‘rganilayotgan tizimning barcha tarkibiy qismlari o‘rtasida aloqalar o‘rnatilishi hamda sifat ko‘rsatkichlari miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan birlikda harakat qilishi kerak [3]. Ushbu talablarga asoslanib, biz tibbiyot talabalarining ingliz tili kompetensiyasini baholash uchun beshta asosiy mezonni ajratdik (1-jadval).

1-jadval. Tibbiyot talabalari ingliz tili kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko’rsatkichlar
Kommunikativ kompetensiya	Og‘zaki va yozma tibbiy muloqotni ingliz tilida amalga oshirish qobiliyati; “shifokor–bemor”, “shifokor–shifokor” o‘zaro ta’sirida orientatsiya; tibbiy matnlarni izohlash va referat qilish; kasb tilida muloqot jarayonida grammatik to’g’rilik.
Leksik-terminologik kompetensiya	Klinik terminologiya, anatomiya va fiziologiya leksikasini bilish; simptomlar, tashxis va davolash bilan bog‘liʁ iboralar zaxirasiga ega bo‘lish; atamalarni kontekstga mos qo‘llay olish; tibbiy qisqartmalar va formulalarni tushunish.
Refleksiv kompetensiya	Klinik muloqot jarayonida o‘z nutq harakatlarini tahlil qilish; qiyinchiliklarni aniqlash va muqobil strategiyalar izlash; “Medical Growth Log” kabi refleksiv vositalar orqali o‘z-o‘zini baholash; metakognitiv fikrlash ko‘nikmasining mavjudligi.
Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniy kontekstlarda professional muloqot olib borish; bemorlarga nisbatan empatiya va hurmat ko‘rsatish; xalqaro tibbiy hamjamiyat me‘yorlarini tushunish; o‘z madaniyatini anglash va qayta ko‘rib chiqish qobiliyati.
Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi	Xalqaro ilmiy manbalarga mustaqil murojaat etish; tibbiy ingliz tili bo‘yicha o‘z bilimini yangilab borish; konferentsiyalar va akademik tadbirlarda ingliz tilida ishtirok etishga intilish; kasbiy portfel va jurnal yuritish.

Kommunikativ kompetensiya barcha mezonlar ichida markaziy o‘rin egallaydi, chunki tibbiy faoliyat bevosita muloqotga asoslanadi. “Shifokor–bemor” o‘zaro ta’siridagi nutq strategiyalari nafaqat lingvistik, balki psixologik va axloqiy o‘lchovlarga ham ega [1]. Leksik-terminologik kompetensiya esa tibbiy kontekstda so‘zlarni to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish qobiliyatini o‘z ichiga olganligi bois alohida mezon sifatida ajratildi.

Refleksiv kompetensiya — zamonaviy tibbiyot ta‘limida eng muhim, lekin eng kam o‘rganilgan mezonlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘z nutq faoliyatini tahlil qila oladigan shifokor bemorlari bilan ancha samaraliroq muloqot qurishga qodir bo‘ladi [3, 5]. “Medical Growth Log” kabi refleksiv vositalar va Think-Pair-Share texnikasi dars jarayonida ushbu kompetensiyani maqsadli tarzda rivojlantirishga imkon beradi.

Madaniyatlararo kompetensiya globallashuv sharoitida tibbiyot mutaxassisi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har xil madaniy kontekstdan kelgan bemorlar bilan ishlash malakasi — bu nafaqat tilni bilishni, balki turli dunyoqarash va muloqot me‘norlarini hurmat qilishni ham taqozo etadi [2]. Nihoyat, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi mutaxassisni umrbod o‘quvchi sifatida shakllantiradi: xalqaro manbalarga murojaat etish, konferentsiyalarda ishtirok etish va kasbiy portfelni yangilab borish — bularning barchasi bu mezonning ko‘rsatkichlaridir.

2. Rolli o‘yin va mashg‘ulot texnologiyasi

Ajratilgan mezonlarni amaliyotda shakllantirish maqsadida rolli o‘yin texnologiyasiga asoslangan mashg‘ulot modeli ishlab chiqildi. Talabalar shifokor va bemor rollarini ijro etish orqali real hayotdagi klinik vaziyatlarni modellashtiradilar. O‘yin ingliz tilida olib boriladi va quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: og‘zaki muloqot, klinik holatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va dialogdan keyin yozma refleksiya.

Mashg‘ulot uch darajali maqsadga qaratilgan. Ta’lim maqsadi: klinik amaliyot, anamnez, shikoyatlar va tashxis bilan bog‘liғ lug‘at va iboralarni o‘zlashtirish. Rivojlanish maqsadi: tanqidiy fikrlash, refleksiya ko‘nikmalari va o‘z nutq faoliyatini ongli baholash. Tarbiyaviy maqsad: kasbiy javobgarlik, hamdardlik va bemor bilan muloqot madaniyatini shakllantirish.

Rolli o‘yin uchun klinik vaziyat kartalari (case cards) tayyorlanadi. Misol vaziyatlar: “A child with high fever”, “An elderly patient with memory loss”, “A woman with abdominal pain”. Har bir juftlik (shifokor + bemor) o‘z vaziyatini ingliz tilida ijro etadi, so‘ngra refleksiv varaqani to‘ldiradi: “Nimaga erishdim?”, “Nimani yaxshilash kerak?”

Ushbu texnologiyaning kognitiv va refleksiv potensiali quyidagilardan iborat: tibbiy matnni tahlil qilish; kasbiy muloqot strategiyalarini taqqoslash; matnni tushunishdagi o‘z qiyinchiliklarini aniqlash; nutq qarorlarini baholash. Mashg‘ulotning to‘liq tuzilishi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Refleksiv mashg‘ulot tuzilishi

Bosqich	**Tarkibi va faoliyati**	**Refleksiv komponent**
1. Bilimlarni	Qisqa muloqot: “Why is	Kirish refleksiyasi: “Men

yangilash	English important for doctors?”	kasbiy muloqotga tayyorligimni qanday his qilaman?”
2. Maqsad belgilash	O‘qituvchi maqsadni shakllantiradi: klinik matnlarni tahlil qilish va muloqotni refleksiya qilish.	Shaxsiy blogda dars maqsadlarini yozish.
3. Matn bilan ishlash	“Taking Patient History”: o‘qish, atamalarni tanlash, jadval to‘ldirish (Symptoms–Expressions–Actions).	“Nima qiyin edi? Bo‘lakda qanday iboralar ishlataman?”
4. Rolli o‘yin (mini-dialog)	Shifokor–bemor: 1 talaba shifokor, 2-talaba bemor. Vaziyatlar: “A child with high fever”, “Abdominal pain”.	Varaqani to‘ldirish: “Nimaga erishdim?”, “Nimani yaxshilash kerak?”
5. Muhokama	Think-Pair-Share: muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni muhokama qilish.	“Men qanday yangi strategiyalarni kashf qildim?”
6. Reflektiv jurnal	“Medical Growth Log”: 2 yangi so‘z, 1 qiyinchilik, 1 xulosa.	Metakognitiv fikrlashni rivojlantirish.

Tajriba-sinov tibbiyot oliy o‘quv yurtining ikkinchi kurs talabalariga (n=48) asosida o‘tkazildi. Aniqlash bosqichida talabalarning ingliz tili kompetensiyasining barcha mezonlari bo‘yicha holati o‘rganildi. So‘ngra bir semestr davomida rolli o‘yin va refleksiv jurnal asosidagi mashg‘ulot modeli joriy etildi. Shakllantirish bosqichi yakunida o‘lchov takrorlandi. Natijalar quyidagicha (3-jadval):

3-jadval. Tajriba-sinov natijalari: aniqlash va shakllantirish bosqichlari

Ko‘rsatkich	**Aniqlash bosqichi (%)**	**Shakllantirish bosqichi (%)**
Kommunikativ kompetensiya (yuqori daraja)	28	61
Leksik-terminologik boylik	34	67
Refleksiv ko‘nikmalar	19	54
Madaniyatlararo tushunuv	23	58
Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish	21	55

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan shu ma’lum bo’ladiki, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatildi. Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha yuqori darajadagi talabalar soni 28% dan 61% ga ko‘tarildi. Refleksiv ko‘nikmalar

bo‘yicha o‘sish eng katta farqni ko‘rsatdi: 19% dan 54% ga, ya’ni 35 foiz punktga. Bu natija rolli o‘yin va “Medical Growth Log” vositasining refleksiyani rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi [5].

Tajriba-sinov sifat tahlili ham muhim xulosalar berdi. Talabalarning o‘z refleksiv varaqlari va kundalik yozuvlarini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldi: mashg‘ulotning boshida talabalar o‘z qiyinchiliklarini sirtaki tarzda ta’riplagan (“so‘zlarni bilmayman”), semestir oxirida esa chuqurroq metakognitiv tahlil kuzatildi (“Men shifokor sifatida bemorni tinglashim, emas, balki unga qaratilgan savollar orqali yo‘naltira bilishim kerak ekan”). Bu o‘z-o‘zini baholash sifatining o‘sishini ko‘rsatadi [3].

XULOSA

Tibbiyot talabalari ingliz tili kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy mezonlari sifatida kommunikativ, leksik-terminologik, refleksiv, madaniyatlararo va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari ajratildi. Taklif etilayotgan mezonlar tizimi tibbiyot ta‘limining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, u darsda foydalaniladigan metodlar, texnologiyalar va baholash vositalarini tanlashda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu mezonlar asosida diagnostik vositalar ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi — ayniqsa, refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uslublarini bilishi — ham alohida tadqiqot ob‘ekti bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sandars, J. (2009). The use of reflection in medical education: AMEE Guide No. 44. Medical Teacher, 31(8), 685–695.

2. Kneebone, R. (2016). Simulation, safety and surgery. Quality & Safety in Health Care, 25(1), 9–13.

3. Mamede, S., & Schmidt, H. G. (2023). Reflective practice in medical education: A systematic review. Academic Medicine, 98(4), 512–521.

4. Driessen, E. W., van Tartwijk, J., & Dornan, T. (2019). The self-critical doctor: Helping students become more reflective. BMJ, 362, k3801.

5. Shinnick, M. A., Woo, M., & Mentes, J. C. (2021). Human simulation with debriefing and reflective journaling in nursing education. Clinical Simulation in Nursing, 55, 22–30.